



SUD ISLOHOTLARINING HARBIY SUDLARGA TA'SIRI

Tadqiqotchi: B.Axmedov,
Samarqand harbiy sudi raisi (O'zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud islohotlarining harbiy sudlar faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Mustaqillikdan so'ng boshlangan islohotlar natijasida harbiy sudlarning tashkiliy tuzilmasi, vakolatlari, sudyalar mustaqilligi va sudlov sifati sezilarli darajada o'zgargan. Maqolada bu islohotlarning mazmuni, yutuqlari hamda hali mavjud muammolar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: sud islohotlari, harbiy sud, sud hokimiyati, sud mustaqilligi, sud tizimi, sudyalar, O'zbekiston.

IMPACT OF JUDICIAL REFORM ON MILITARY COURTS

Annotation: This article analyzes the impact of judicial reforms in the Republic of Uzbekistan on the activities of military courts. As a result of reforms initiated after independence, the organizational structure, powers, independence of judges, and quality of justices of military courts have changed significantly. The article reveals the content of these reforms, their achievements and the problems that still exist.

Keywords: judicial reforms, military court, judiciary, judicial independence, judicial system, judges, Uzbekistan.

Harbiy sud — bu harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatga doir boshqa shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, nizolar va boshqa huquqiy masalalarni ko'rib chiqishga vakolatli maxsus yurisdiksiya sudidir. U sud hokimiyatining tarkibiy qismi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tizimiga kiradi.

Harbiy sudning asosiy maqsadi harbiy intizomni ta'minlash, harbiy xizmatchilar o'rtaida qonun ustuvorligini qaror toptirish, va harbiy xizmatga oid ishlar bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq sohasida chuqr islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar faqat umumiy yurisdiksiya sudlariga emas, balki harbiy sudlar tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Harbiy sudlar, davlat xavfsizligi va harbiy intizomni saqlashda muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, ularning faoliyat samaradorligini oshirish, xolislik va shaffoflikni ta'minlash doimo dolzarb masala bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari,



farmonlari va konstitutsiyaviy islohotlar natijasida sud hokimiyatining mustaqilligi kuchaytirildi, jumladan harbiy sudlar faoliyatining tashkiliy va normativ asoslari takomillashtirildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yildan boshlab sud tizimini isloh qilishga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilindi. Ular quydagilarni o‘z ichiga oladi:

- Sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlash;
- Sudlarning xalq oldida ochiqligi va hisobdorligini ta’minlash;
- Sudyalar malakasini oshirish;
- Ixtisoslashtirilgan sudlarni qayta ko‘rib chiqish.

Bu yo‘nalishlarning barchasi harbiy sudlarga ham taalluqli bo‘lib, ularning tashkil etilishidan tortib kadrlar siyosatigacha keng o‘zgarishlarga olib keldi.

Sud islohotlari O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab keng qamrovda olib borilmoqda va ular harbiy sudlar faoliyatida ham bir qator aniq o‘zgarishlarga olib keldi. Bu ta’sirlarni quydagi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin:

1. Tashkiliy-struktura o‘zgarishlari. Harbiy sudlar qayta tashkil etildi:
 - 2020-yil 24-iyulda Prezident qarori bilan Harbiy sudning tashkiliy tuzilmasi yangilandi.
 - Harbiy sudda ishlovchi sudyalar soni 7 taga yetkazildi.
 - Sud binolari va texnik jihozlar yangilandi — zamonaviy axborot texnologiyalari, video-muloqot tizimlari va elektron sudlov vositalari joriy etildi.
 - Qariyb barcha okruglar bo‘yicha hududiy harbiy sudlar faoliyati optimallashtirildi:
 - Harbiy sudi bilan bevosita hamkorlik qilish imkoniyati kuchaytirildi;
 - Harbiy sud qarorlarini nazorat qilish tizimi yaxshilandi.
 - 2. Sudyalar mustaqilligi va kadrlar siyosati. Sudyalarni tayinlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimi takomillashtirildi:
 - Sudyalar Sudyalar oliy kengashi tomonidan ochiq va shaffof tanlov asosida tanlanmoqda;
 - Harbiy sudyalarga nisbatan ham siyosiy yoki ma’muriy bosim o‘tkazilishi qat’iyan taqiqlangan.
 - Sudyalarning malaka va bilim darajasini oshirish:
 - Yangi o‘quv kurslari joriy etildi;
 - Harbiy sudyalar uchun Xalqaro sud tizimlari bilan tajriba almashish loyihalari yo‘lga qo‘yildi.
 - 3. Sudlov sifatining oshishi
 - Harbiy sudlar faoliyatida xolislik va odillik kuchaydi:



Sud jarayonlari bo'yicha ochiq sud majlislari ko'paymoqda;
Qabul qilinayotgan qarorlar yuzasidan jamoatchilikka axborot berish yo'lga
qo'yildi.

- Arizalar va ish yuritish elektron tizimlar orqali yuritilmoqda:
 - Bu shaffoflikni oshirish, taraflar orasidagi tenglikni ta'minlash va huquqburzaliklarning oldini olishda muhim vositaga aylangan.

4. Harbiy xizmatchilarining sudga ishonchi ortdi

- Harbiy sudlar orqali xizmatga oid da'volar hal qilinmoqda:

Maosh, imtiyozlar, pensiya, ijtimoiy ta'minot bilan bog'liq da'volar soni ortdi;

Qarorlar odatda xolis va qonuniy deb e'tirof etilmoqda.

5. Normativ-huquqiy asoslarning takomillashuvi

Harbiy sudlar faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilmoqda (masalan, BMTning sudlar mustaqilligi tamoyillari);

Sudlar to'g'risidagi qonunlarga o'zgartirishlar kiritilib, harbiy sudlarning aniq vakolat doirasi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud islohotlari harbiy sudlar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Harbiy sudlarning tashkiliy va funksional jihatlari yangilanib, sud mustaqilligi va shaffofligi yo'lida muhim qadamlar qo'yildi. Shu bilan birga, islohotlarning barqaror va tizimli davom ettirilishi harbiy sudlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Sud islohotlari natijasida O'zbekiston harbiy sudlarining: mustaqilligi kuchaydi, ishonchliligi ortdi, qarorlar sifati yaxshilandi, va zamonaviy texnologiyalar asosida ishlash salohiyati oshdi. Bu esa, harbiy sudlarning faqat jazolovchi organ emas, balki adolat va qonun ustuvorligini ta'minlovchi institut sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992-yil.
2. "Sudlar to'g'risida"gi Qonun, 1993-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagagi "Sud-huquq sohasidagi islohotlar to'g'risida"gi qarori.
4. Mavlonov, A. (2022). *Harbiy sudlar faoliyatidagi muammolar va yechimlar*. Toshkent: Yuridik nashriyot.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy axborotlari (sud.uz).